

**DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Gulov Muxtor Ochilovich*

*Biznes va innovatsion menejment kafedarsi dotsenti*

*gulovmuxtor@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat boshqaruvini davlat tizimini samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni jadal rivojlantirish hamda xalqimizning farovon, go‘zal hayot tarzi va umuman olganda, har bitta sohada yuksak yutuqlarga erishish maqsadida davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish, unda horijiy tajribani o‘rganish, milliy amaliyotda qo‘llash haqida hamda davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish kerakli va foydali ma‘lumotlarni ifoda etadi.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv, islohotlar, parlament, hamkorlik, milliy tizim.

Jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda barcha davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari bir tizimga birlashadi va asosiy mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Davlat mexanizmi – barcha davlat organlarining yagona, markazlashgan tizimi bo‘lib, ular o‘zlariga berilgan vakolat asosida davlat funksiyalarini bajaradilar va hokimiyatni amalga oshiradilar. Hozirgi kunda davlatshunos olimlar davlat apparatining, eng avvalo, fuqarolar va ular uyushmalarining turli ehtiyoj va manfaatlarini mutanosiblashtirish mexanizmi deb hisoblaydilar. Bunday fikrning to‘g‘riligi davlat mexanizmining o‘ziga xos umumiy belgilarini tahlil etish jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davlat mexanizmi quyidagi asoslarga ko‘ra faoliyat yuritadi: 1. Davlat mexanizmining yagonaligi. Davlat mexanizmi – davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik tizimidir. Uning yaxlitligi davlat organlari va muassasalari faoliyati tamoyillarining, vazifalari va maqsadlarining yagonaligi bilan ta‘minlanadi. Davlat organlari o‘zaro farq qilishiga qaramasdan, bir butunning qismlari hisoblanadi va o‘zaro bog‘liq. Masalan, parlament va hukumat turli vakolatlarga ega, turli mazmundagi ishni bajaradi, lekin ikkalasi ham birga yagona davlat hokimiyatini amalga oshiradi, ya‘ni ikkalasining faoliyati ham fuqarolar munosib hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va aloqadorlikda faoliyat yuritadi. 2. Umumiy maqsad va vazifalarning mavjudligi. Barcha davlat organlari umumiy maqsad va vazifalarni bajarishi, ya‘ni davlat funksiyasini amalga oshirish uchun yagona tizimga birlashadi. Asosiy maqsad – xalq manfaatini qondirish. Davlat va ularning organlari xalq irodasini ifoda etadi, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘uldirlar. Konstitutsiyaning 7- moddasida belgilab qo‘yilishicha «O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq 87 manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi». 3. Ierarxik tizimga asoslanganligi. Davlat mexanizmi piramida shaklida tuzilgan bo‘lib, unda yuqori turuvchi organlar quyi turuvchi organlarga nisbatan ko‘proq vakolatlarga ega bo‘ladi va ularning faoliyatiga ta‘sir ko‘rsata oladi, quyi

turuvchi organlar esa yuqori turuvchi organlar qarorlarini bajarishi majburiydir. Masalan, Vazirlar Mahkamasining qarorini joylardagi mahalliy organlar bajarishi majburiy hisoblanadi. 4. Majburlov apparatining mavjudligi. Davlat organlari, xususan, qonun chiqaruvchi organ qonun qabul qilish va uni kuchga kiritish usuli bilan, ijro etuvchi organlar boshqaruv, majburlov va rag'batlantirish usullari bilan huquqiy normalarni tatbiq etadilar. Huquqni muhofaza qilish organlari huquq normalarini amaliyotga tatbiq etishda, asosan, ishontirish va majburlash usullaridan foydalangan holda ish yuritadilar. Jamiyatdagi barcha fuqarolar ham davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatdagi me'yorlarga so'zsiz rioya qilavermaydi, chunki insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bir xilda shakllanmaydi. Shuning uchun, fuqarolar davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarga o'z xohishlariga ko'ra rioya etmaydigan bo'lsa, davlat o'zining majburlov kuchi orqali qonunlarning bajarilishini ta'minlaydi. Bular: prokuratura, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati, jinoiy jazoni ijro etish muassasalari, armiya va boshqalar. 5. Boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi maxsus shaxslar guruhining mavjudligi. Davlat organlarida faoliyat yurituvchi shaxslar ish faoliyatida faqatgina boshqaruv bilan shug'ullanadi, ular ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmaydilar. Shuningdek, ushbu toifadagi shaxslar davlat va jamiyat manfaatlarini uchun faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, sudya sudlov jarayonida birorbir yaqin tanishining huquqbuzarlik sodir etgan ishi bo'yicha, u shaxsga nisbatan qonuniy chora ko'rish jarayonida, o'zining shaxsiy manfaatlarini inobatga olib emas, balki davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, obyektiv ravishda qonunga asosan hukm chiqaradi. 6. Hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlarining ichki strukturasi mavjudligi. Davlat mexanizmining bir me'yorda ishlashini ta'minlash maqsadida davlat organlari, davlat muassasalari va davlat tashkilotlari birgalikda harakat qiladi va o'z navbatida, ular ichki tarkibiy tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Davlat organlari – davlat funksiyalarini amalga oshirishda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining asosiy bo'g'ini. Masalan, prokuratura, sud, ichki ishlar organlari va boshqalar hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlaridir. Davlat tashkilotlari – bevosita ishlab chiqarish hamda ta'minot bilan shug'ullanuvchi davlat idorasi hisoblanib, davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Mazkur tashkilotlarning asosiy qismini davlat o'z monopoliyasida qoldiradi. Metro, tramvay, trolleybus, elektr energiyasi, aloqa tizimi shular jumlasidandir. Davlat muassasalari – bu davlat organlari kabi hokimiyat vakolatiga ega bo'lmay, davlatning oldida turgan umumijtimoiy vazifalarni bajaruvchi idoralar. Masalan, kasalxonalar, maorif, teatr va boshqalar. Ushbu organlar hokimiyat vakolatiga ega bo'lmasa-da, lekin jamiyat oldida turgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalarni bajaradi. Yuridik adabiyotlarda «davlat apparati» va «davlat mexanizmi» degan tushunchalar ko'p uchraydi. Bu tushunchalar, asosan, bir xil mazmunga ega. Lekin «davlat mexanizmi» kengroq tushuncha bo'lib, unga davlat organlaridan tashqari davlat apparati ishini tashkil qiladigan, unga yordam beruvchi bo'limlar, muassasalar ham kiradi. Ularga tayanib davlat apparati o'z faoliyatini, davlat funksiyalarini amalga oshiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini davlat organi, deb olsak, Ichki ishlar vazirligining oliy o'quv yurtlari, tibbiyot, moliya – iqtisod boshqarmalari va shunga o'xshash vazirlikning faoliyatini tashkil qilishga yordam beradigan tashkilotlar, uning muassasalari hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, hukumatni modernizatsiya qilish mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, xalqaro tajriba uning samaradorligini oshirishga yordam beradi. 5-may kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Aziz Abduhakimov, adliya vaziri Ruslanbek Davletov, investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosari Shuhrat Vafoev va Turizmni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi direktori Sh. Al-Gergavi uchrashuv davomida sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot va boshqa sohalarda amaliy natijalarga erishish uchun jamoaviy ish olib borish muhimligini ta'kidlashdi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojatnomasida mahalliy ijro va vakillik organlari hamda mahalla idoralarining institutsional asoslarini takomillashtirish bo'yicha aniq va keng ko'lamli vazifalarni belgilab berdi. Qayd etish lozimki, mamlakatimiz shiddatli taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, yuqori samara bilan faoliyat yurituvchi tizimini shakllantirish talab qilinadi.

Shu bilan birga, mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini davr talablaridan kelib chiqqan holda tubdan modernizatsiya qilish hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini yana-da takomillashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator tashabbuslar ilgari surildi.

Birinchiidan shu yil oxiriga qadar elektron davlat xizmatlarini 60taga ko'paytirib, ularning sonini 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Shu yilda tumanlar byudjetiga qo'shimcha manbalarning kamida 10 foizini bevosita aholi fikr mulohazalari va mahalladagi muammolarini hal etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish maqsadlariga 70 mlrd. so'm yo'naltiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan amaliy harakatlar islohotlarni to'liq amalga oshirilishining ta'minlashi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o'z vaqtida aniqlashi va samarali hal etishga qodir bo'lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendensiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini yaratishga imkon beradi.

Aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi uning sifati va korrupsiyaning keskin qisqarishiga zamin yaratadi.

Ikkinchiidan davlat boshqaruvi idoralari va hokimliklarning tuzilmasi tubdan takomillashtirilishi, xodimlar sonini o'rtacha 15 foizga qisqartirilishi hamda boshqaruv idoralari har bir bo'g'inidagi rahbar va xodimlarning vakolat chegarasi aniq belgilab berilishi alohida ta'kidlandi. Bu o'z navbatida, bir birini takrorlovchi va hozirgi kunda dolzarb bo'lmagan davlat funksiyalarini qisqartirilishiga olib keladi.

Uchinchiidan tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida xodimlar soni va maoshi hududning o'ziga xosligi hamda ish hajmidan kelib chiqib belgilash mexanizmi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Shubhasiz, ushbu tashabbus mahalliy boshqaruv organlari va mahalla idoralari ishchilariga munosib va adolatli mehnat haqi to'lashda o'z aksini topadi.

To'rtinchiidan har bir qishloq yoki mahalla o'z yo'nalishi va "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib rivojlantirilishi aytib otildi. Buning uchun shu yil 3 trillion

soʻmlik mablagʻga ega boʻladigan hududlar infratuzilmasini rivojlantirish jamgʻarmasini tuzish koʻzda tutilgan. Jamgʻarma mablagʻlari mahalliy kengashlar takliflariga asosan infratuzilma loyihalarini qoʻshma moliyalashtirishga yoʻnaltiriladi. Bu oʻz navbatida joylardagi infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholini turmush darajasini yaxshilashga mustahkam zamin yaratadi.

Beshinchidan shu yil boshidan har bir vazirlik oʻz ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtirishi va tashkil etishi belgilandi. Ushbuni inobatga olgan holda vazirlar va ularning oʻrinbosarlari faoliyatiga joylarda amalda qanday oʻzgarish boʻlganiga qarab baho beriladi. Endilikda mutasaddi rahbarlardan aholi muammolarini joyiga chiqqan holda oʻrganish va ularni hal etish talab etiladi[2].

Davlat boshqaruvida markazlashuvning yuqoriligi oqibatida murakkab masalalarga aniq yechim topishda ortiqcha kuch, vaqt va resurs sarf etilardi. Shu bois, davlat organlarining sohaga oid boʻlmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishni davrning oʻzi taqazo etayotgan edi. Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrda "Yangi Oʻzbekiston maʼmuriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmoni zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farmonga binoan vazirliklar isloh qilinadi, hukumat ish uslubi ham tubdan oʻzgaradi. Vazirlik va idoralar soni hozirgi 61 tadan 28 taga kamaytiriladi. Yoki vazirliklar 25 tadan 21 taga qisqartirildi. Davlat boshqaruvining ixchamlashtirilishi sabablari haqida davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga va xalqimizga yoʻllagan Murojaatnomasida ham batafsil fikr yuritildi. Jumladan, unda davlat apparatida takrorlanish koʻpligi, ortiqcha shtatlar mavjudligi, vazirlarning hukumat qabul qilayotgan qarorlarni hayotga joriy etishdagi ishtiroki va masʼuliyati yetarli emasligiga urgʻu berildi. Murojaatnomada maʼmuriy islohotlar xususida gap ketar ekan, davlat xizmatchilari soni 30-35 foizga qisqarishi natijasida iqtisod qilinadigan mablagʻlar ijtimoiy masalalarga yoʻnaltirilishi aytiladi. Har bir vazirning siyosiy maqomi, Prezident, parlament va jamoatchilik oldidagi masʼuliyati va javobgarligi oshirilishi taʼkidlandi[3].

Mamlakatimizda boshqaruv shakli davlat amaldorlari davlatni qay yoʻsinda boshqarayotganini anglatadi. Har bir davlat oʻz boshqaruv shakliga ega boʻladi. Jumladan, Oʻzbekistoin ham oʻz boshqaruv shakliga egadir.

Yuqoridagi katusga yaxshiroq, aniqroq va tushunarliroq javob berish uchun, avvalo, muammolarni aniqlab olamiz.

Birinchi muammo: Mamlakatimizning boshqaruv shakli.

Ikkinchi muammo: Davlat boshqaruv shakliga qonuniy tahlil.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, dunyodagi mavjud barcha davlatlar oʻzining boshqaruv shakliga egadir. Hozirda dunyoda 200 dan oshiq davlat boʻlsa, ularning har birining oʻz boshqaruv shakli mavjud. Bizning davlatimiz ham oʻz boshqaruviga ega va bu boshqaruv yoʻlini istiqbolimizning dastlabki yillaridayoq belgilab olgan.

Avvalo, davlat boshqaruv shakli oʻzi nima, u qanday turlarda namoyon boʻladi degan savolga javob topamiz. Huquqshunos olim Saydullayev.Sh.A ning fikricha, davlat boshqaruv shakli – bu davlat hokimiyatining oliy organlarini tashkil etish hamda ushbu organlarning oʻzaro va aholi bilan boʻlgan munosabatlarini belgilovchi davlat

shaklining bir tarkibiy qismidir . Muayyan davlatda davlat boshlig‘ining huquqiy maqomi bilan bog‘liq masalalar ham davlat boshqaruvi shaklining mazmuni tarkibiga kiradi. Davlat boshqaruv shakliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: monarxiya va respublika. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan qonunlarga ko‘ra, davlatimiz shakli respublika hisoblanadi. Respublika – shunday boshqaruv shakliki, bunda davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab qo‘yiladigan organlar va davlat boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi[4].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aziz Botirovich Mardonov Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi bo‘limi magistranti.
2. <https://yuz.uz/uz/news/davlat-boshqaruvi-tizimini-tubdan-isloh-qilishning-asosiy-yonalishlari-belgilab-olindi>
3. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/13731>
4. <https://teletype.in/@kamlijanov/QTs8skzHE2j>
5. Tangriyev Abdurahmon Furqat o‘g‘li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNING MARKETING STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH